

## POREY PIYOZINING OZIQ – OVQAT VA SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI, NAV NA'MUNALARI VA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI

*Xakimov Shaxbozbek Shavkatbek o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Magistranti*

*Usmonov Mirzohid Sobirjon o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada porey piyozining biologiyasi, tarqalishi va yetishtirish texnologiyasi, foydali xususiyatlari va nav va duragaylari haqida ma'lumotlar berilgan. Porey piyozining oziq-ovqatdagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Porey piyozi, agrotexnika, nav, duragay, unuvchanlik, sug'orish,

### **Abstract**

This article provides information on the biology, distribution and cultivation technology, useful properties and varieties and hybrids of leeks. There is talk of the importance of onions in food.

**Key words:** Leeks, agrotechnics, cultivar, hybrid, growth, irrigation

Insoniyat qadim zamonlardan beri piyozning har xil turlarini oziq-ovqat maxsuloti sifatida ishlatib kelmoqda. Porey piyozi ham bundan mustasno emas. Qadimgi Misrliklar, Yunonlar va Rimliklar porey piyozidan oziq-ovqat o'simligi sifatida foydalanishgan. Misrda porey piyozi miloddan oldingi 3000 yilda yetishtirilgan. Vatani Old Osiyo bo'lib, u yerdan O'rta Yer dengiziga kelgan. Bu hududlarda uning yovvoyi xolda o'suvchi formasi *Allium ampeloprasum* hozir ham uchraydi, undan kelib chiqqan madaniy turi qadimgi Misrda asosiy sabzavot ekinlaridan biri bo'lgan.

Hozirgi paytda sabzavot ekini sifatida Yevropada, O'rta Yer dengizi atrofidagi davlatlarda, Shimoliy Amerikada, ko'proq qismi esa G'arbiy Yevropa, asosan Fransiyada yetishtirilmoqda. Bugungi kunda porey mashhurliigi jihatidan sarimsoq piyoz va bosh piyozdan keying o'rinda turadi. Uni ba'zan marvarid piyoz deb ham yuritishadi. Oq soxta poyasi va yosh barglari yoqimli ta'mga ega bo'lib, pazandachilik maxsulotlariga o'ziga xos xushbo'ylik beradi.

Porey piyozining shifobaxshlik xususiyatlari o'tmishda ham ma'lum bo'lgan. Uni podagra, revmatizm, singa, buyrak toshi, semizlik, ruxiy va jismoniy toliqishda bemorlarga tavsiya etilgan. Porey piyozi boy kimyoviy tarkibga ega. Uning tarkibida suv 83-87%, umumiy uglevodlar 7,3-11,2% shundan shakar 0,5%, kraxmal 0,3%, kletchatka 1,5%, oqsillar 2-3%, yog'lar 0,2%, organik kislotalar 0,1% miqdorida bor. Shuningdek uning tarkibida mineral moddalar natriy-50, kaliy-225, kalsiy-87, magniy-10, fosfor-58, temir-1-2,4, rux, marganes, mis, kremniy kabi asosiy makro va mikroelementlar bilan bir qatorda vitaminlar, efir moylar, fitonsidlar, fermentlar mavjud.

Porey boshqa hech bir sabzavot ekini ega bo'lmagan xususiyatga ega: saqlash davrida oq qismidagi askorbin kislotasi miqdori bir yarim barobarga ortadi. Yangi uzilgan piyozni dastlab bir hafta sovutgichda saqlab keyin ishlatilsa, C vitamini miqdori ortishi kuchayadi. Ozuqa moddalarning asosiy qismi porey hosili yig'ib olinganidan 3-4 oydan keyin to'plana boshlaydi. Shu bilan birga uning hosildorligi ikki barobar yuqori bo'lib, 6 oygacha haridorgirlik xususiyatlarini saqlab tura oladi. Kasalliklar va zararkunandalar bilan deyarli zararlanmaydi. Porey piyozi dietalarda, yurak-qon tomir kasalliklarida, antiseptik va bakteridsid xususiyatiga ega bo'lganligi uchun yallig'lanish, shamollashda, ko'z kasalliklarida ko'rishni yaxshilash uchun hamda rak kasalliklarining oldini olish uchun ishlatiladi.

**Barcha navlari 3 ta asosiy guruhga bo'linadi:**

Ertapishar hosili avgustda yig'ib olinadi;  
O'rtapishar hosili oktabrda yig'ib olinadi;  
Kechpishar hosili oktabrdan keyin yig'ib olinadi.

Poreyning eng ko'p ekiladigan navlari:

**Bastion** – o'rtapishar, ekishdan keyin 150 kunda pishib yetiladi, yuqori hosildor nav.

**Goliat** – ertapishar, ekishdan keyin 130 kunda pishib yetiladi, yuqori hosildor nav.

**Karantanskiy** – kechpishar, ekishdan keyin 180 kunda pishib yetiladi, poyasi slindrsimon, yuqori hosildor nav.

**Sizokril** – kechpishar, ekishdan keyin 200 kunda pishib yetiladi, o'tkir ta'mga ega, qishga chidamli, yuqori hosildor nav.

**Elefant** – kechpishar, ekishdan keyin 190 kunda pishib yetiladi, o'tkir ta'mga ega, yuqori hosildor nav.

Bulardan tashqari, "Vesta", "Kolambus", "Xobot slona", "Tango", "Kazimir", "Dobriy molodets", "Letniy briz", "Jiraf", "Pobeditel", "Gulliver", "Bandit", "Russkiy razmer" kabi navlari ham keng miqyosda yetishtiriladi. Barcha navlar bir uyli bo'lib, bitta osimlikda ikki jinsli gullar bor. Urug'lar har qanday rivojlangan na'munadan yig'ib olinishi mumkin.

Porey piyozi ikki usulda – urug'idan va ko'chatidan yetishtiriladi. Ko'chat yetishtirish uchun urug'lar fevral-mart oylarida maxsus konteynerlarga ekiladi. Maxsus torfli stakanchalarda ko'chat yetishtirish ham yaxshi natija beradi. 1 m<sup>2</sup> maydonga 1gr urug' sepish mumkin.

Urug'lar qatorlab, bir-biridan 4-5 sm oraliq masofa qoldirib ekiladi. Chuqurligi 1,2-1,5 sm bo'lishi kerak. Ular unib chiqishi uchun harorat +20 °C va +25 °C oralig'ida bo'lishi kerak. Kun uzunligi davomiyligi esa 11 soatdan kam bo'lmaganda yaxshi rivojlanadi. Birinchi nihollar bir yarim haftada unib chiqadi. Xuddi shu vaqtdan boshlab havo haroratini kunduzgi +15 °C dan +17 °C gacha, kechasi +10 °C dan +14 °C gacha tushirish tavsiya etiladi. Qutildagi nihollar doimiy sug'orilishi va ikki marta mineral o'g'itlar, masalan, superfosfat bilan og'itlanishi kerak. Ko'chatlarni ko'chirib o'tkazishdan oldin har kuni 2-3 soatga ochiq havoga olib chiqib chiniqtirish, ularning yangi sharoitga moslashishini tezlashtiradi. Ko'chirib o'tkazilayotgan ko'chatlarda kamida 3 tadan chin barglar bo'lishi kerak.

Ko'chatlar jo'yakning egatchalariga qator oralig'i 30 sm, ko'chatlar oralig'i 15-20 sm, egatchalar chuqurligi 10 sm dan kam bo'lmagan chuqurlikka ekiladi. Ko'chatlar ko'chirib o'tkazilgandan keyin sug'oriladi. Porey piyozi uchun eng yaxshi o'tmishdosh ekinlar tamatdoshlar, dukkaddoshlar va krestguldoshlar hisoblanadi.

O'g'itlash uchun mineral o'g'itlarni yoki go'ng atalasini ishlatish mumkin. Gektardan 23-30 t hosil olish uchun bo'z tuproqlarda sof holdagi mineral o'g'itlardan: azot-200, fosfor-150 va kaliydan-75 kg/ga solish tavsiya etiladi. Oyiga 1-2 marta piyoz atrofidagi tuproq yumshatilishi kerak, bunda tuproq kislorod bilan yaxshi ta'minlanadi va o'simlik yaxshi o'sib, rivojlanadi. Taxminan iyul oyidan boshlab vegetatsiya davrining oxirigacha o'sayotgan piyoz qo'shimcha namlikka ehtiyoj sezadi, ushbu faktorga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ko'chat ekilganidan to ular tutib olgunicha 2-3 marta sug'oriladi. O'sish davrida esa 6-7 marta sug'oriladi. Lentachalar orasidagi begona o'tlar 1-2 marta qo'lda tozalanadi. Qator orasidagi begona o'tlar ko'chatlar yo'liq tutib olganidan so'ng 1-2 marta kultivatorlar yordamida ishlov berib yo'qotiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asatov Sh.I., Qodirxo'jayev O., Mirzasoliyev M.M. Piyozni takroriy ekin sifatida ko'chatidan yetishtirish texnologiyasi. Tavsiyanoma. Toshkent 2018
2. Agrobank tomonidan tayyorlangan "100 kitob" to'plami
3. [www.abcslim.ru/articles](http://www.abcslim.ru/articles)